

Surxondaryo viloyati umumiy o'rta ta'lim


2024/2025 o'quv yili boshiga

- I. Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari
- II. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar
- III. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX va XI sinf bitiruvchilari
- IV. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz)
- V. Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar


I. Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari

Surxondaryo viloyatida 2024/2025 o'quv yili boshida faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni **995 tani** tashkil etgan va 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan **61 taga**, ya'ni **6,5 % ga** oshgan.

Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



Faoliyat yuritayotgan nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



2024/2025 o'quv yili boshiga respublikada jami **4 ta** nodavlat umumta'lim tashkilotlari faoliyat yuritgan va 2022/2023 o'quv yiliga nisbatan ularning soni **1,3 barobarga** ko'paygan.

Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, birlik)

	Umumta'lim tashkilotlari soni, jami	shundan: nodavlat umumta'lim tashkilotlari
Surxondaryo viloyati	995	4
Termiz sh	33	3
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	71	-
Angor	49	-
Bandixon	44	-
Boysun	60	-
Muzrabot	59	-
Denov	114	1
Jarqo'rg'on	69	-
Qumqo'rg'on	88	-
Qiziriq	51	-
Sariosiyo	94	-
Termiz	33	-
Uzun	72	-
Sherobod	77	-
Sho'rchi	77	-

2024/2025 o'quv yili boshiga faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining eng ko'p soni Denov (**114 ta**), Sariosiyo (**94 ta**) va Qumqo'rg'on (**88 ta**) tumanlarida qayd etilgan bo'lsa, boshqa tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Bandixon tumani (**44 ta**), Termiz tumanida va Termiz shahrida (**33 tadan**) qayd etilgan.

Nodavlat umumta'lim tashkilotlariga kelsak, ularning ko'p qismi Termiz shahar (**3 ta**), eng kami esa Denov tumanida (**1 ta**) qayd etilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni](#)

II. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

Surxondaryo viloyatida 2020/2021 – 2024/2025 o'quv yillarida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining o'sishi kuzatilgan. Ushbu davrda o'quvchilarning umumiy soni **55,6 ming kishiga**, ya'ni **1,0 % ga** ko'paygan.

Smenalar bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilar soni

(jismoniy yoki rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinflar hamda boshqa ta'lim muassasalariga tashkil etilgan sinflar o'quvchilarisiz, tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Ushbu davrda 1-smenalar bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilar soni **5,7 ming nafarga**, ya'ni **1,1 % ga**, 2-smenalar bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilar soni **5,3 ming nafarga**, ya'ni **1,0 % ga** oshgan.

O'quvchilar sonini tuman (shahar) kesimida taqsimlanishi

(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	O'quvchilar soni, jami	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
		qiz bolalar	o'g'il bolalar	qiz bolalar	o'g'il bolalar
Surxondaryo viloyati	559,9	274,6	84,7	49,0	51,0
Termiz sh	39,6	18,9	20,7	47,7	52,3
<i>tumanlar:</i>					
Oltinsoy	37,0	18,2	18,8	49,2	50,8
Angor	26,7	13,1	13,6	49,1	50,9
Bandixon	17,3	8,6	8,7	49,7	50,3
Boysun	25,5	12,6	12,9	49,4	50,6
Muzrabot	29,6	14,5	15,1	49,0	51,0
Denov	81,5	39,9	41,6	49,0	51,0
Jarqo'rg'on	45,3	22,1	23,2	48,8	51,2
Qumqo'rg'on	49,0	24,1	24,9	49,2	50,8
Qiziriq	23,9	11,9	12,0	49,8	50,2
Sariosiyo	45,2	22,4	22,8	49,6	50,4
Termiz	20,0	9,3	10,7	46,5	53,5
Uzun	36,8	18,2	18,6	49,5	50,5
Sherobod	37,7	18,3	19,4	48,5	51,5
Sho'rchi	44,8	22,1	22,7	49,3	50,7

Viloyatimizning barcha tuman va shaharlarida o'g'il bolalar soni qiz bolalar sonidan o'rtacha **3,0 % ga** ortadi. O'quvchilarning eng ko'p qismi Denov (**81,5 ming**), Jarqo'rg'on (**45,3 ming**) va Sariosiyo (**45,2 ming**) tumanlarida qayd etilgan, eng kami esa Termiz (**20,0 ming**) va Bandixon tumanlarida (**17,3 ming**) to'g'ri kelgan. O'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi eng sezilarli tafovut Termiz tumanida (o'g'il bolalar – **53,5 %**, qiz bolalar – **46,5 %**), Termiz shahrida (o'g'il bolalar – **52,3 %**, qiz bolalar – **47,7 %**), Sherobod tumanida (o'g'il bolalar – **51,5 %**, qiz bolalar – **48,5 %**), boshqa tumanlarda o'g'il va qiz bolalar nisbati taxminan bir xil.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'quvchilar soni \(jami\)](#)

[O'quvchilar soni \(qiz bolalar\)](#)


[O'quvchilar soni \(o'g'il bolalar\)](#)

III. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX va XI sinf bitiruvchilari

2024-yilda Surxondaryo viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX sinf bitiruvchilari soni **42,8 ming kishini** tashkil etgan va 2020-yilga nisbatan ularning soni **3,9 ming kishiga**, ya'ni **1,0 % ga** ko'paygan. XI sinf bitiruvchilari soni esa, aksincha, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan **4,7 ming kishiga**, ya'ni **7,9 % ga** kamaygan va **33,9 ming kishini** tashkil etgan.

IX va XI sinf bitiruvchilari soni

(tegishli yil uchun, ming kishi)



IX sinf bitiruvchilari soni XI sinf bitiruvchilariga nisbatan ko'pligi ba'zi o'quvchilar IX sinfni tugatgandan so'ng akademik litsey yoki kasb-hunar maktablarida o'z o'qishlarini davom ettirayotganini anglatadi.

IX va XI sinf bitiruvchilari sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)


	IX sinf bitiruvchilari	XI sinf bitiruvchilari
Surxondaryo viloyati	42,8	33,9
Termiz sh	3,3	2,8
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	3,2	2,3
Angor	1,8	1,4
Bandixon	1,4	1,0
Boysun	2,0	1,6
Muzrabot	2,2	1,7
Denov	6,0	4,8
Jarqo'rg'on	3,4	2,7
Qumqo'rg'on	4,1	3,2
Qiziriq	1,7	1,4
Sariosiyo	3,2	2,6
Termiz	1,4	1,1
Uzun	2,7	2,2
Sherobod	2,8	2,4
Sho'rchi	3,3	2,7

IX sinf bitiruvchilarining eng ko'p qismi Denov (**6,0 ming**) va Qumqo'rg'on (**4,1 ming**) tumanlarida, eng kam esa Bandixon va Termiz (**1,4 mingdan**) tumanlarida qayd etilgan. XI sinf bitiruvchilari orasida ham Denov (**4,8 ming**) va Qumqo'rg'on (**3,2 ming**) tumanlarida yetakchilik qilmoqda, Termiz (**1,1 ming**) va Bandixon (**1,0 ming**) tumanlarida esa bu ko'rsatkich eng past darajada bo'lgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:[IX sinf bitiruvchilari](#)[XI sinf bitiruvchilari](#)**IV. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz)**

2024/2025 o'quv yili boshiga Surxondaryo viloyatining umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) soni **50,3 ming kishini** tashkil etgan va 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan **6,6 ming kishiga**, ya'ni **5,2 % ga** ko'paygan.

O'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) ma'lumoti bo'iyicha taqsimlanishi soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Surxondaryo viloyatida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlaridagi o'qituvchilardan oliy ma'lumotlilari – **42,1 ming kishi** (jamiga nisbatan **83,7 %**) va o'rta-maxsus ma'lumotlilar **8,2 ming kishini** (jamiga nisbatan **16,3 %**) tashkil etgan.

O'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) sonini tuman (shahar) kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	O'qituvchilar soni, jami	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
		ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar
Surxondaryo viloyati	50,3	29,4	20,9	58,4	41,6
Termiz sh	3,1	2,4	0,7	77,4	22,6
<i>tumanlar:</i>					
Oltinsoy	3,8	1,7	2,1	44,7	55,3
Angor	2,4	1,5	0,9	62,5	37,5
Bandixon	1,6	0,7	0,9	43,8	56,2
Boysun	2,4	1,0	1,4	41,7	58,3
Muzrabot	2,7	1,5	1,2	55,6	44,4
Denov	6,6	4,1	2,5	62,1	37,9
Jarqo'rg'on	3,9	2,5	1,4	64,1	35,9
Qumqo'rg'on	4,4	2,1	2,3	47,7	52,3
Qiziriq	2,2	1,1	1,1	50,0	50,0
Sariosiyo	4,1	2,7	1,4	65,9	34,1
Termiz	1,8	1,2	0,6	66,7	33,3
Uzun	3,3	1,9	1,4	57,6	42,4
Sherobod	3,9	2,1	1,8	53,8	46,2
Sho'rchi	4,2	2,7	1,5	64,3	35,7

Eng yuqori ayol o'qituvchilar ulushi Termiz shaharga to'g'ri kelgan (**77,4%**), Termiz tumanida esa bu ko'rsatkich nisbatan pastroq bo'lgan (**66,7 %**). O'qituvchilarning eng katta qismi Denov (**6,6 ming kishi**) va Qumqo'rg'on (**4,4 ming kishi**) tumanida qayd etilgan. Boshqa tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Termiz (**1,8 ming kishi**) hamda Bandixon (**1,6 ming kishi**) tumanlariga to'g'ri kelgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Chislennost uchiteley \(vsego\)](#)

V. Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistik hisobot – **1-umumta'lim shakli** "Umumta'lim muassasasining hisoboti" asosida shakllantiriladi. Ushbu hisobotni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining umumta'lim muassasalari, boshqa vazirlik va idoralarning umumta'lim muassasalari, mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'i nazar litsenziya asosida nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar taqdim etadi.

Umumta'lim muassasasining statistik hisobotida o'quvchilar, bitiruvchilar, o'qituvchilar soni hamda umumiy o'rta ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar aks ettiriladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi.

O'quvchilar va o'qituvchilar soni, umumta'lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasi kabi asosiy ko'rsatkichlar yangi o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil uchun keltiriladi. Yig'ma ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, ta'lim islohotlarini rejalashtirish, shuningdek, barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) doirasida va boshqa xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:
[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)
[MSKO 2011](#)
[MSKO-0 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Manzil: Manzil: 190108, Termiz sh.,
At-Termiziy ko'chasi, 7-uy Pochta:
info@surstat.uz Tel.: (55) 541-80-00
Ichki: 76-00

